

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARIXIY ROMAN VA TARIXIY-BADIIY ASARLARNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU tayanch doktoranti

saydullayevashoira3@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida tarixiy roman va tarixiy-badiiy asarlarning berilish tartibi, ularning metodik vazifasi hamda tarixiy-badiiy tafakkurni shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 5–11-sinf adabiyot darsliklaridagi tarixiy mavzudagi asarlar bosqichma-bosqich o'rganildi. Tahlil natijasida tarixiy tafakkurning emotsional idrokdan analitik tahlilga, undan tarixiy-falsafiy interpretatsiyaga qadar murakkablashib borishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, tarixiy-badiiy asar, tarixiy tafakkur, tarixiy empatiya, interpretativ o'qish, adabiyot darsligi, metodik tizim, o'quvchi kompetensiyasi.

Abstract. This article analyzes the arrangement of historical novels and historical-literary works in secondary school literature textbooks, their methodological functions, and their role in developing historical-literary thinking. During the research, historical-themed works included in literature textbooks for grades 5–11 were studied step by step. The analysis revealed that historical thinking gradually develops from emotional perception to analytical interpretation and then to historical-philosophical interpretation.

Keywords: historical novel, historical-literary work, historical thinking, historical empathy, interpretative reading, literature textbook, methodological system, student competence.

Аннотация. В данной статье анализируются порядок включения исторических романов и историко-художественных произведений в школьные учебники литературы, их методические функции, а также возможности формирования историко-художественного мышления учащихся. В ходе исследования поэтапно были изучены произведения исторической тематики, представленные в учебниках литературы для 5–11 классов. В результате анализа было выявлено, что историческое мышление постепенно усложняется: от эмоционального восприятия к аналитическому осмыслению, а затем к историко-философской интерпретации.

Ключевые слова: исторический роман, историко-художественное произведение, историческое мышление, историческая эмпатия, интерпретативное чтение, учебник литературы, методическая система, компетенция учащегося.

Kirish. Adabiy ta'limda tarixiy roman va tarixiy-badiiy asarlarni o'rganish o'quvchilarda faqat badiiy-estetik didni emas, balki tarixiy ong, milliy xotira, axloqiy pozitsiya va interpretativ tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarixiy roman o'tmish voqealarini quruq tarixiy faktlar shaklida emas, inson taqdiri, ruhiy kechinma, ijtimoiy ziddiyat va badiiy talqin orqali idrok ettiradi. Shu sababli mazkur janrni o'qitish adabiyot metodikasida alohida yondashuvni talab etadi.

Umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida tarixiy mavzudagi asarlar turli janrlarda uchraydi: rivoyat, hikoyat, tarixiy qissa, tarixiy roman, tarixiy-ijtimoiy roman va tarixiy drama. Bu holat o'quvchilarda tarixiy-badiiy tafakkurni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi. Biroq darsliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarixiy asarlar mavjud bo'lsa-da, tarixiy romanlarni o'qitishning maxsus metodik modeli, tarixiy tafakkur kompetensiyalari va janriy uzviylik tamoyillari yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi umumta'lim maktablari adabiyot darsliklarida tarixiy roman va tarixiy-badiiy asarlarning berilish tartibini metodik jihatdan tahlil qilish hamda tarixiy romanlarni o'qitish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Tadqiqot materiali sifatida 5–11-sinf adabiyot darsliklaridagi tarixiy mavzudagi asarlar tanlandi. Jumladan, 5-sinfda Sharq hikoyat va rivoyatlari [1], 6-sinfda tarixiy fakt va badiiy to'qima munosabatiga oid materiallar [2], 7-sinfda Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” va Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlari bilan bog'liq parchalar [3], 8-sinfda Xayriddin Sultonovning “Saodat sohili” qissasi [4], 9-sinfda Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinasi” romani [5], 10–11-sinflarda Fitratning “Abulfayzxon” dramasi hamda Cho'lponning “Kecha va kunduz” romani [6,7] o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Qiyosiy-metodik tahlil – sinflar kesimida tarixiy mavzudagi asarlarning berilish tartibini aniqlash uchun.

Interpretativ tahlil – savol-topshiriqlar va metodik apparatning mazmunini ochish uchun.

Kompetensiyaviy yondashuv – tarixiy tafakkur, tarixiy empatiya va badiiy tahlil ko'nikmalarini aniqlash uchun.

Janriy tahlil – tarixiy roman, tarixiy qissa va tarixiy drama o'rtasidagi metodik farqlarni ko'rsatish uchun.

5–11-sinf darsliklari tahlili tarixiy mavzudagi asarlar o'quvchilarning yosh va tafakkur xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich murakkablashib borishini ko'rsatadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval. 5–11-sinflarda tarixiy-badiiy asarlarning metodik rivojlanish bosqichlari.

Sinf	Asar janri yoki material turi	Metodik vazifa	Shakllanadigan ko'nikma
5-sinf	Tarixiy rivoyat va tarixiy hikoyatlar	Tarixiy shaxsga qiziqish uyg'otish	Emotsional idrok, axloqiy baholash
6-sinf	Tarixiy fakt va badiiy to'qima	Tarixiy va badiiy matn farqini bilish	Sodda qiyoslash, faktni anglash
7-sinf	Tarixiy roman: “Mehrobdan chayon”, “Yulduzli tunlar”	Konflikt va xarakter tahliliga kirish	Interpretativ o'qish, obraz tahlili
8-sinf	Tarixiy qissa: “Saodat sohili”	Tarixiy shaxs ruhiyatini anglash	Psixologik tahlil
9-sinf	Tarixiy roman: “Ulug'bek xazinasi”	Ilm, hokimiyat va tarixiy fojeani tahlil qilish	Tarixiy-falsafiy tafakkur
10-sinf	Tarixiy drama: “Abulfayzxon”	Tarixiy konfliktni dramatik shaklda anglash	Sahnaviy tafakkur, dialoglar tahlili
11-sinf	Tarixiy drama: “Abulfayzxon”, tarixiy roman: “Kecha va kunduz”	Tarixiy jarayonni ijtimoiy-falsafiy talqin qilish	Tanqidiy va Interpretativ mushohada

Jadvaldan ko‘rinadiki, tarixiy asarlar darsliklarda tasodifiy joylashtirilmagan. Dastlab o‘quvchida tarixiy voqeaga qiziqish uyg‘otiladi, keyin tarixiy fakt va badiiy talqinni farqlash boshlanadi; yuqori sinflarda esa tarixiy shaxs, tarixiy muhit, siyosiy konflikt va ijtimoiy fojea murakkab badiiy tahlil obyekti sifatida beriladi.

5-sinf adabiyot darsligidagi tarixiy rivoyatlar [5: 61–68] tarixiy romanlarni o‘qitishga bevosita kirish bo‘lmasa-da, tarixiy-badiiy tafakkurning dastlabki asoslarini yaratadi. Bu bosqichda o‘quvchi tarixiy shaxsni ilmiy-tarixiy kategoriya sifatida emas, axloqiy ideal va ibrat manbai sifatida qabul qiladi. Masalan, Ibn Sino va Mirzo Ulug‘bek haqidagi rivoyatlar orqali o‘quvchida ilmga hurmat, poklik, mehnatsevarlik, qadriyatga sadoqat kabi tushunchalar shakllantiriladi. Bu yosh bosqichida murakkab “tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima” tahlilini talab qilish metodik jihatdan og‘ir bo‘ladi. Shuning uchun 5-sinfda savol-topshiriqlar ko‘proq shaxsiy munosabat, hayotiy xulosa va axloqiy baholashga yo‘naltirilgani tabiiydir.

6-sinfga kelib tarixiy matn bilan ishlash bir pog‘ona murakkablashadi. Darslikda tarixiy fakt va badiiy talqin munosabatiga e‘tibor qaratilishi [2: 54-55] o‘quvchini tarixiy tafakkurning sodda qiyosiy bosqichiga olib kiradi. Bu bosqichda o‘quvchi tarixiy voqea bilan badiiy tasvir bir xil narsa emasligini sezadi. Demak, 6-sinf tarixiy romanlarni keyingi sinflarda anglash uchun “fakt va talqin” o‘rtasidagi dastlabki chegarani belgilovchi metodik bosqich hisoblanadi.

7-sinf adabiyot darsligida tarixiy roman materiallari ancha jiddiy metodik vazifa bajaradi. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidan berilgan parchalar [3: 148–171] orqali o‘quvchi tarixiy roman tarkibida konflikt, xarakter, ijtimoiy muhit va dialogning badiiy vazifasini anglay boshlaydi. Bu asar orqali tarixiy voqelik faqat o‘tmish manzarasi sifatida emas, insoniy tanlov, sadoqat, xiyonat, adolat va qo‘rquv munosabatlari orqali ochiladi.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani bilan bog‘liq materiallarda esa Bobur obrazi tarixiy shaxs sifatida emas, murakkab ruhiy olamga ega qahramon sifatida beriladi. Bu holat 7-sinf o‘quvchisida tarixiy shaxsni biryozlama ulug‘lash emas, uning ichki kechinmalarini tushunish ko‘nikmasini shakllantiradi. Mazkur sinfda “Fanlararo aloqa: adabiyot va tarix” yo‘nalishining mavjudligi [3: 172-173] muhim. Chunki tarixiy roman o‘qitilganda tarixiy kontekstni e‘tiborsiz qoldirish matni soddalashtirib yuboradi. Biroq darslikdagi topshiriqlar hali to‘liq poetik tahlil darajasiga chiqmagan. Ular ko‘proq konflikt va xarakter tahliliga yo‘naltirilgan.

8-sinfda tarixiy asarni o‘qitish psixologik chuqurlashuv bilan xarakterlanadi. Xayriddin Sultonovning “Saodat sohili” qissasi [4: 87–107] orqali Bobur obrazining vatandan ayrilish iztirobi, ma‘rifatga intilishi va ruhiy izlanishlari ochiladi. Bu bosqichda tarixiy shaxs tarixiy harakat subyekti bo‘lish bilan birga, ichki iztirobga ega inson sifatida ham talqin qilinadi.

9-sinfda Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani [5: 77–102] asosida tarixiy romanlarni o‘qitish yanada murakkab bosqichga ko‘tariladi. Bu yerda asosiy e‘tibor tarixiy shaxsning ilmiy-ma‘rifiy faoliyati, hokimiyat bilan munosabati, ilm va jaholat ziddiyati, tarixiy fojea mohiyatiga qaratiladi. “Ulug‘bek xazinasi” o‘quvchini tarixiy voqeani emas, tarixiy tanazzul sabablarini anglashga olib kiradi. Bu bosqich tarixiy romanlarni o‘qitishda eng muhim oraliq pog‘ona hisoblanadi. Chunki o‘quvchi endi tarixiy asarni voqea sifatida emas, konseptual badiiy tizim sifatida qabul qila boshlaydi.

10-sinfda Fitratning “Abulfayzxon” dramasi [6: 230–277] orqali tarixiy mavzu dramatik shaklda beriladi. Darslikda asarni o‘rganish jarayonida “asarda aks ettirilgan milliy inqiroz sabablarini tadqiq qilamiz” degan maqsad belgilangan. Bu topshiriqning o‘zi tarixiy asar o‘quvchini oddiy mazmun o‘zlashtirish emas, milliy tanazzul sabablarini izlashga yo‘naltirishini ko‘rsatadi. Fitrat haqida berilgan ma‘lumotlarda uning “Yosh buxoroliklar” harakati, “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti, ta‘lim va ma‘rifat sohasidagi faoliyati alohida ko‘rsatiladi. Bu esa “Abulfayzxon”ni faqat tarixiy drama sifatida emas, Fitratning milliy uyg‘onish g‘oyasi bilan bog‘liq matn sifatida o‘qishga imkon beradi. Darslikda dramatik asarning sahnada ijro etilishi, syujetning dialog va harakat asosida rivojlanishi, monolog orqali obraz ichki kechinmalarining ochilishi haqida nazariy ma‘lumot beriladi. Bu metodik yondashuv o‘quvchini epik tafakkurdan dramatik tafakkurga olib kiradi.

11-sinfda “Kecha va kunduz” romani [7: 36–57] tarixiylikning boshqa – ijtimoiy-psixologik shaklini ochadi. Bu asarda tarixiy shaxs emas, tarixiy davr, mustamlaka muhiti, jadidchilik, ayol taqdiri, eski va yangi dunyo ziddiyati markazga chiqadi. Shu jihatdan “Kecha va kunduz” tarixiy roman tushunchasini kengaytiradi: tarixiylik faqat xonlar, sarkardalar va davlatlar tarixida emas, xalq hayoti, ijtimoiy muhit, ma‘naviy uyg‘onish va shaxs taqdirida ham namoyon bo‘ladi.

Natijalar. Darsliklar tahlili asosida quyidagi metodik tendensiyalar aniqlandi.

2-jadval. Darsliklarda tarixiy tafakkur rivojining metodik yo‘nalishlari.

<i>Bosqich</i>	<i>Sinflar</i>	<i>Yetakchi xususiyat</i>	<i>Metodik imkoniyat</i>	<i>Metodik muammo</i>
Tarixiy-emotsional idrok	5–6	Tarixiy obrazga qiziqish	Qadriyat, axloq, tarixiy xotira	Analitik tahlil cheklangan
Tarixiy-badiiy tafakkur	7–9	Konflikt, xarakter, muhit	Tarixiy va badiiy talqinni farqlash	Poetika yaxshi ochildirgan
Tarixiy-falsafiy interpretatsiya	10-11	Tanazzul, jadidchilik, ijtimoiy ziddiyat	Tanqidiy va interpretativ tafakkur	Janriy izchillik sustlashadi

Mazkur jadval shuni ko‘rsatadiki, darsliklarda tarixiy tafakkurning rivojlanish tendensiyasi mavjud. Biroq bu rivojlanish hali maxsus tarixiy roman metodikasi sifatida to‘liq tizimlashtirilmagan. Asarlar bor, metodik imkoniyatlar bor, ammo tarixiy romanlarni o‘qitishning umumiy modeli, kompetensiyalari va maxsus tahlil mexanizmlari yetarli emas.

Tahlil natijalariga tayanib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Tarixiy romanlarni o'qitishning bosqichli modeli ishlab chiqilishi kerak. Har bir sinfda tarixiy roman yoki tarixiy-badiiy asar alohida maqsadga xizmat qilishi zarur.

2. "Fakt – badiiy talqin – muallif pozitsiyasi" ni bilishi lozim. Tarixiy roman bilan ishlaganda o'quvchi uch narsani farqlashi kerak:

1. Tarixiy fakt (asarda tarixiy voqea yoki shaxsga oid real asos);
2. Badiiy talqin (yozuvchi uni qanday badiiylashtirgan);
3. Muallif pozitsiyasi (muallif tarixiy hodisaga qanday munosabat bildirgan).

3. Tarixiy empatiya savollari ko'paytirilishi kerak. Masalan: – *Boburning qarorini bugungi kun mezon bilan emas, uning davri sharoitida qanday tushunish mumkin?*

– *Ulug'bek nega ilmni hokimiyatdan ustun qo'ydi?*

– *Abulfayzxon fojeasida shaxsiy ayb va tarixiy sharoit nisbati qanday?*

– *Zebi taqdirida davr muhiti qanday rol o'ynagan?*

3. Tarixiy romanlar fanlararo integratsiyada o'qitilishi kerak. Tarixiy roman darslari tarix, geografiya, san'at, kino, madaniyatshunoslik bilan bog'lanishi lozim. Masalan: – *Bobur asarlarini xarita bilan;*

– *Ulug'bek romanini astronomiya tarixi bilan;*

– *"Kecha va kunduz"ni jadidchilik tarixi bilan;*

– *"Abulfayzxon"ni Buxoro xonligi tarixi bilan bog'lab o'rganish samarali bo'ladi.*

5. Yuqori sinflarda test topshiriqlaridan ko'ra ochiq interpretativ topshiriqlar ustuvor bo'lishi kerak. Tarixiy roman "to'g'ri javob"ni emas, asoslangan talqinni talab qiladi. Shuning uchun savollar quyidagicha bo'lishi kerak: – Muallif tarixiy voqeani nima uchun aynan shu epizod orqali bergan?

– Qahramon tanloviga tarixiy muhit qanday ta'sir qilgan?

– Asarda tarixiylik qaysi badiiy vositalar orqali yaratilgan?

Xulosa. Umumta'lim maktablari adabiyot darsliklari tahlili shuni ko'rsatdiki, tarixiy roman va tarixiy-badiiy asarlar o'quvchilarda tarixiy ong, milliy xotira, estetik tafakkur va interpretativ mushohada shakllantirish uchun katta imkoniyatga ega. 5–11-sinflar kesimida tarixiy tafakkurning emotsional idrokdan tarixiy-falsafiy interpretatsiyaga qarab rivojlanishi kuzatiladi. Biroq tarixiy romanlarni o'qitish hozircha yaxlit metodik model sifatida to'liq shakllanmagan. Darsliklarda tarixiy asarlar mavjud, ammo ularning janriy xususiyati, tarixiy va badiiy talqin munosabati, tarixiy empatiya va interpretativ tahlil imkoniyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu sababli tarixiy romanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun bosqichli model, tarixiy tafakkur kompetensiyalari, fanlararo integratsiya va interpretativ o'qish metodlarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q., Qambarova S., To'xliyeva D., Yusufjonova N., Olimjanov O. Adabiyot: 5-sinf (1-qism). – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 100 b.

2. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Mirzayeva Z., Qodirova N., Mamiraliyev Q. Adabiyot: 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025. – 240 b.
5. Nurmuhammadov J., Yusupova D., Olimjanov O. Adabiyot: 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2025. – 240 b.
6. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot: 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 312 b.
7. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot: 11-sinf uchun darslik-majmua (II qism). – Toshkent: «O‘zbekis ton milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

